

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari**

5-son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ 5 (5) - 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahammadovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafuz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti.

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasi mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo‘limi psixologik xizmat boshlig‘i.

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po‘latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo‘tayeov Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O‘zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro‘yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo‘yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Qurbonova Marg'uba</i> O'ZBEK TILI VA TIL SIYOSATI: TARIXIY EVOLYUTSIYA VA ZAMONAVIY OMMALASHTIRISH VOSITALARI	13-15
<i>Polvanov Azim Kuchkarovich</i> AMIR TEMUR QO'SHINIDA HARBIY TA'MINOT VA ASKAR SAFARBARLIGINING MANBALARDA YORITILISHI	16-21
<i>Esnazarova Zulfiya Baltashovna</i> QORAQALPOQLARNING SHAHAR MADANIYATI (1873 – 1924).....	22-27
<i>Axmedov Shaxzod Farxod o'g'li</i> O'ZBEKISTONDAGI YOSHLAR TASHKILOTLARI FAOLIYATI TARIXIDAN (1991 – 2017-yillar).....	28-36
<i>Mamajonov Alisher, Alisherov Abduvohid</i> IKKINCHI JAHON URUSHI JANG MAYDONLARIDA ANDIJONLIK RAHBAR XODIMLARINING ISHTIROKI	37-43
<i>Mamasaidov Lutfillo Payzullo o'g'li</i> XALQ TA'LIMI SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA HAMKORLIK ALOQALARI	44-47
<i>Asadova Ra'no Baymanovna</i> INNOVATIVE APPROACHES TO URBAN PLANNING AND TOURISM INFRASTRUCTURE DEVELOPMENT IN NEW UZBEKISTAN (CASE STUDY OF INDIA'S EXPERIENCE).....	48-52
<i>Esanova Nilufar</i> 1991-2024 YILLARDA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING SANOAT SOHASIDA HAMKORLIGI: NATIJALAR VA ISTIQBOLLAR (HINDISTON VA XITOIY MAMLAKATLARI MISOLIDA).....	53-56
<i>Abdug'aniyev Bekzod Abduvali o'g'li</i> O'ZBEK XONLIKLARI VA USMONLI DAVLATI HUKMDORI SULTON SULAYMON O'RTASIDAGI SIYOSIY ALOQALAR	57-64
<i>Xudoyberdiyev Axrorboy Nabi o'g'li</i> HUDUDIIY YONDASHUV ASOSIDA YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATINI AMALGA OSHIRISH: QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA	65-70
<i>Zokirjanov Mirzohid Shuxrat o'g'li</i> XIX ASRNING IKKINCHI YARMI – XX ASR BOSHLARIDA BOKU NEFT SANOATINING ROSSIYA IQTISODIIY HAYOTIDA TUTGAN O'RNI	71-74
<i>Xudayberdiyev Utkir Toshmuradovich</i> MUSTAQILLIK YILLARIDA TOSHG'UZOR-BOYSUN-QUMQO'RG'ON TEMIR YO'LINING QURILISHI VA UNING IJTIMOYIY-IQTISODIIY AHAMIYATI	75-80
<i>O'rmonov Husniddin Baxriddin o'g'li</i> ULUG' VATAN URUSHINING DASTLABKI YILLARIDA O'ZBEKISTON SANOATI	81-88

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

- Urdushev Xamrakul, Sirojiddin Eshanqulov*
MEVA-SABZAVOTCHILIK KLAUSTERLARI:
EKSPORTGA YO'NALTIRILGAN RIVOJLANISH 89-98
- Maxammadaliyeva Muslimaxon Sherali qizi*
MOBIL ILOVALAR ORQALI XIZMAT KO'RSATISH:
QULAYLIKMI YOKI NAZORAT VOSITASIMI? 99-104
- Xakkulov Akbar Uralovich*
MARKAZIY BANK FOIZ SIYOSATINING BANKLARNING FOIZ RISKIGA TA'SIRI 105-111
- Amonov Mehridin Oromiddinovich*
TADBIRKORLIK FAOLIYATINI BOSHQARISHDA RAHBARLIK USLUBI:
AVTOKRATIK RAHBARLAR 112-117
- Ismoilova Dilfuza Ibodullayevna*
HUDUDLARDA AHOLI SALOMATLIGINI TA'MINLANGANLIK DARAJASINI
BAHOLASH USULLARI VA MEZONLARI 118-125
- Yangiboyev Rustam Berdiyarovich*
TIJORAT BANKLARI LIKVIDLILIGINI BOSHQARISHNING NAZARIY ASOSLARI 126-131
- Ollanazarov Bekmurod Davlatmurotovich*
DXSH LOYIHALARIDA INVESTITSION KRAUDFANDING MODELIDAN
FOYDALANISH ORQALI INVESTITSION FAOLLIKNI OSHIRISH VA UNI TURISTIK
XIZMATLAR KO'RSATISH SOHASIDA QO'LLASH ISTIQBOLLARI 132-143
- Eshqobilova Nigoraxon, Qurbonova Safiyabonu*
DAVLAT BUDJETINING DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHNING
NAZARIY ASOSLARI 144-150
- Umronov Eldorbek Sodirovich*
HUDUDLARDA INNOVATSION XIZMATLAR TURLARI RIVOJLANISHINING
EKZOGEN VA ENDOGEN OMILLARI, ULAR TASNIFI VA KO'RSATKICHLARI 151-159
- Turgunov Jasurbek, Siddikova Farangiz*
OPPORTUNITIES AND PROSPECTS FOR DEVELOPING A GREEN ECONOMY
IN UZBEKISTAN 160-172

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

- Ahmedova Dilrabo*
YOSHLARNING MA'NAVIY-AXLOQIY QIYOFASINING SHAKLLANISHIGA TARIXIY
JARAYONLARNING TA'SIRI 173-177
- Raxmatova Xolidaxon Xolikovna*
NAQSHBANDIYLIKDAGI MUROSA FALSAFASIGA OID QARASHLARINING
FALSAFIY TAHLILI 178-184
- Kurbonaliyev Ural Xatamovich*
ZAMONAVIY AXLOQIY INQIROZ SHAROITIDA ABU MUHAMMAD ABDULLOH
DORIMIY MEROSINING YOSHLAR MA'NAVIYATINI YUKSALTIRISHDAGI ROLI 185-189
- Soipova Mavjuda Karimjanovna*
FAZL IBN AHMAD TA'LIMOTIDA BILISH MASALASI 190-194

<i>Jabborova Saodat Sattorovna</i> MA'NAVIYAT DAVLAT VA JAMIYAT RIVOJLANISHINING ASOSI	195-198
<i>Fayziyev Xurshid Jumayevich</i> VOLTER FALSAFIY QARASHLARIDA FRANSIYADA AGRAR MUNOSABATLAR TAHLILI	199-204
<i>Olimova Moxinur Ravshanbek qizi</i> YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOTIDA MA'NAVIYATNING O'RNI	205-208
<i>Usarkulov Oybek</i> O'ZBEKISTON VA JANUBIY KOREYA O'RTASIDAGI MADANIY, ILMIY-TEXNIKAVIY ALOQALARNING IJTIMOYIY AHAMIYATI	209-214
<i>Majidov Sodiqjon Sadullayevich</i> IJTIMOIY ZIDDIYATLAR VA IJTIMOYIY FALSAFIY TALQINLAR	215-218
<i>Абдуллаева Икбола Мохировна</i> КНИГА – КАК ОДИН ИЗ ОСНОВНЫХ ВИДОВ ИСКУССТВА – ИСКУССТВО СЛОВА	219-226
<i>Yusupova Ranoxon Tolibjonovna</i> MUHANDISLIK TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOYIY- FALSAFIY OMILLARI	227-230
<i>Turabova Sevara Kattaqulovna</i> GLOBAL MEHNAT BOZORIDA SOFT SKILLS VA IJTIMOYIY ONGNING STRATEGIK INTEGRATSIYASI	231-235
<i>Rustamov Ramz Rizoqulovich</i> DESTRUKTIV TARG'IBOT TA'SIRIDAN HIMOYALANISHDA TANQIDIY TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISH AHAMIYATI	236-240
<i>Aslanov Said Karimovich</i> TIZIMLI YONDASHUV VA BOSHQARUV FAOLIYATING O'ZORO ALOQADORLIGI	241-244
<i>G'aniyev Elbek Abdizoitovich</i> YOSHLARDA AXLOQIY INQIROZ KUCHAYISHIDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING ROLI	245-248
<i>Bozarov Dilmurod Mirzarasulovich</i> SINERGETIKANING ONTOLOGIK MUAMMOLARNI HAL ETISHDAGI O'RNI	249-252
<i>Ochilova Nigora Ruzimuratovna</i> GLOBAL MUAMMOLARNI BARTARAF ETISHDA XALQARO KUCHLAR BIRLASHUVINING AHAMIYATI	253-258
<i>Azimov Ozod Mamatkulovich</i> YOSHLARDA EKOESTETIK DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRISHNING FALSAFIY ASOSLARI	259-264
<i>Xolmirzayeva Jumagul Xamdamovna</i> TARIXIY MANBALARDA YOSH MUTAXASSISLARNI RIVOJLANTIRISH HAQIDAGI QARASHLAR	265-271

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>Мамбетов Сердар Ахмедович</i> СПОСОБЫ ПЕРЕВОДА РУССКИХ ПРИЛАГАТЕЛЬНЫХ НА КАРАКАЛПАКСКИЙ ЯЗЫК	272-280
---	---------

<i>Qurbanova Hilola Maqsadbek qizi</i> PRACTICAL NEEDS' ANALYSIS OF SOME BILINGUAL STUDENTS	281-288
<i>Rakhmonova Yulduz Khusanovna</i> A HETEROGENEOUS LEGACY: EXAMINING HEMINGWAY'S STYLE IN HIS LATER YEARS	289-295
<i>Yakubova Nilufar Egamberganovna</i> ESKI O'ZBEK TILIDA TAF'IL QOLIPLI O'ZLASHMALAR	296-301
<i>Sadullayeva Muxlisa Xamrayevna</i> ZAMONAVIY O'ZBEK HIKOYALARIDA BADIY KONFLIKT MASALASI	302-307
<i>Shomurodova Shahlo, Axmedjanova Farida</i> MARGARET DRABBLNING "THE MILLSTONE" ASARIDAGI NOYOB KO'RINISH	308-311
<i>Nazarov Sardor Shamurodovich</i> A COMPARATIVE STUDY OF THE STRUCTURAL-SEMANTIC FEATURES OF ENGLISH AND UZBEK WORD COMBINATIONS	312-315
<i>Otajonova Dildor Baxtiyarovna</i> HAQORAT VA TAHDIDLAR BILAN BOG'LIQ DA'VOLARNI SUD-LINGVISTIK EKSPERTIZADAN O'TKAZISH ALGORITMI	316-325
<i>Файзуллина Наргиза Дамировна</i> СОВРЕМЕННЫЕ СИНОНИМЫ И ТЕРМИНЫ КОМПЬЮТЕРНО-ИГРОВОГО СЛЕНГА В РУССКОМ ЯЗЫКЕ	326-331
<i>Sodiqova Dinora Ilhom qizi</i> ANALYSIS OF PRINCIPLES OF CONVEYING FEELINGS CONCERNING LITERARY TRANSLATION	332-337
<i>Nazimova Himmatoy</i> "DEV" VA "YALMOG'IZ" OBRAZI ETIMOLOGIYASI, KELIB CHIQISHI VA MADANIY ILDIZLARI TAHLILI	338-342
<i>Arziqulova Xurshida, Mustanova Shohista</i> SHARQ VA G'ARB DRAMATURGIYASI: MADANIY ALOQALAR VA ILHOM MANBALARI	343-348
<i>Azizova Feruza Rejavalievna</i> TA'LIM JARAYONIDA INNOVATSION G'OYALAR VA TEXNOLOGIYALARNI JORIY QILISH ZAMONAVIY TA'LIMNING BOSH STRATEGIYASI	349-353
<i>Agzamova Gulrux Ravshan qizi</i> XITOIY TILIDAGI MUROJAAT ATAMALARINING UMUMIY VA XUSUSIY BELGILARI	354-358
<i>Sherkulov Sardor Komilovich</i> SOCIAL PROBLEMS IN THE WORKS OF THOMAS HARDY: AN INVESTIGATION OF CLASS INEQUALITY, GENDER AND INDUSTRIALIZATION	359-364
<i>Rasulov Zubaydullo, G'ayratova Oybegim</i> DISKURS — LINGUAPRAMAGMATIK YONDASHUV OBYEKTI SIFATIDA	365-368
<i>Bozorova Umida Qilichovna</i> BADIY KIRITMALARNI ROSSIYADA O'RGANILISHI	369-372
<i>Nuriddinova Huriyat Baxtiyorovna</i> TOPISHMOQLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI	373-376

Mamadiyoro

TAOM NOMLARINING TARJIMA JARAYONIDA MADANIY TAFOVUTLARNING

TA'SIRI 377-384

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

Abdullayeva Nodira Odil qizi

OILAVIY (MAISHIY) ZO'RAVONLIK OMILLARI MAJMUASI 385-393

Jo'raqulov Javohir Musoqul o'g'li

TOVLAMACHILIK JINOYATINI AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN

FOYDALANIB SODIR ETISH AMALIYOTI: MUAMMO VA YECHIMLAR 394-399

Otamirzayev Oybek Murodullo o'g'li

YER OSTI SUVLARINI MUHOFAZA QILISH VA ULARDAN FOYDALANISHNING

PREDMETI VA USULLARI 400-407

Утебаев Саламат, Калбаева Эльдора

ВОПРОСЫ УГОЛОВНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ ЗА ПРЕСТУПЛЕНИЕ

ХУЛИГАНИЯ В НЕКОТОРЫХ ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАНАХ 408-413

Nuriddinov Ismoil O'lmas o'g'li

BURHONUDDIN MARG'INONIYNING "HIDOYA" ASARIDA JINOYAT VA JAZO

MUVOZANATIGA OID AYRIM MASALALAR 414-420

Jabbarova Yulduz Ibrohim qizi

SUN'IY INTELLEKTNING NOTO'G'RI XULOSALARI (GALLYUTSINATSIYALAR):

MOHIYATI, SABABLARI VA HUQUQIY TARTIBGA SOLISH ZARURATI 421-432

Burxonov Shahzod Burxon o'g'li

XALQARO MEHNAT STANDARTLARI VA MEHNAT SHAROITLARINI

TARTIBGA SOLISH 433-438

Avezov Umidjon Toshpulatovich

O'ZBEKISTONDA KASABA UYUSHMALARI FAOLIYATINING RIVOJLANISH

BOSQICHLARI TAHLILI 439-446

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Максудов Улугбек Курбанович

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ТЕНДЕНЦИИ ФОРМИРОВАНИЯ АКТИВНОСТИ

СТУДЕНТОВ В ИННОВАЦИОННЫХ И СТАРТАП-ПРОЕКТАХ

В УСЛОВИЯХ МИРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ 447-453

Lutfillayev Maxmud, Egamberdiyeva Feruza

SUN'IY INTELLEKT TUSHUNCHASI, TARIXI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI 454-458

Haqberdiyev Baxtiyor Rustamovich

O'QUV FAOLIYATI TAMOYILLARIDA INTEGRATIV VA SINERGETIK YONDASHUVLAR 459-463

Jamolova Gulbadanbegim, Muhammadiyeva Elmera

TALABALARDA TAHLILIIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK

ASOSLARI 464-468

Mamajanov Raxmatilla Yakubjanovich

TA'LIM JARAYONIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN KOMPLEKS

FOYDALANISHNING METODIK TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH 469-478

<i>Ishonkulov Ashraf Kurbonkulovich</i> GLOBALLASHUV SHAROITIDA TA'LIM JARAYONIDA INFORMAL TA'LIM YONDASHUVDAN FOYDALANISH ZAMONAVIY PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA	479-484
<i>Esboganova Baxit Daribayevna</i> UMUMTA'LIM MAKTABLARDA CHIZMACHILIK DARSLARIDA O'QUVCHILARGA AMALIY MASHG'ULOTLAR OLIB BORISH METODIKASI	485-490
<i>Kamalova Dilnavoz, Amurillayeva Munira</i> TEKNOLOGIYA DARSLARINI O'TISHDA SINFDAN TASHQARI ISHLARNI TASHKIL ETISHNING AHAMIYATI	491-495
<i>Abdullaeva Dilдора Улугбековна</i> АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ПРЕПОДАВАНИЯ ПРАВОВЫХ ДИСЦИПЛИН В ТЕХНИЧЕСКИХ ВУЗАХ	496-503
<i>Xamidova Zaynura Ramazonovna</i> STEAM TA'LIM TEKNOLOGIYASINING TA'LIM JARAYONIDA QO'LLANILISHI VA RIVOJLANISHIDA PEDAGOGIK MUAMMOLAR	504-508
<i>Mustayeva Guldora, Mustayeva Guliston</i> SCIENTIFIC FOUNDATIONS OF REFLECTION MECHANISMS IN PEDAGOGICAL ACTIVITY	509-514
<i>Avazova Munisa</i> TA'LIM DIZAYNIDA O'QUVCHILARNING MOTIVATSIYASINI OSHIRISH: GAMIFIKATSIYA VA INTERAKTIV METODLARNING TA'SIRI	515-517
<i>Abdullayeva Mohigul, Fazlitdinov Muhammadali</i> SUN'IY INTELLEKT VA AXBOROT TEKNOLOGIYALARINING XXI ASRDAGI ROLI HAMDA ULARNING TURLI SOHALARGA TA'SIRINI O'RGANISH	518-521
<i>Urinova Dilbar Abdusamat qizi</i> MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TA'LIM FAOLIYATINI MODERNIZATSIYA QILISHDA TARBIYACHILARNING OTA-ONALAR BILAN ISHLASHINI TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMLARI	522-526
<i>Turdaliyeva Qizlarxon Ilhomjon qizi</i> BOSHLANG'ICH SINFLARDA INGLIZ TILI O'QITISHNING FUNKSIONAL YONDASHUV METODLARI	527-532
<i>Baratov Jo'raqo'zi Shukurjon o'g'li</i> BO'LAJAK MUHANDISLARNI TAYYORLASHDA AMALIY MASHG'ULOTLARDA NOSTANDART TOPSHIRIQLARDAN FOYDALANISH METODIKASI	533-539
<i>Suvanova Gulbaxor Baxromovna</i> KO'P MILLATLI MAKTABLARDA MADANIYATLARARO KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARI: NAZARIY ASOSLAR VA AMALIY YONDASHUVLAR	540-543
<i>Qarshiyeva Muborak, Karshiyev Jaxongir</i> BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARINING LINGVISTIK KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH ORQALI XALQARO BAHOLASH DASTURLARI (PIRLS)GA TAYYORLASH USULLARI	544-547
<i>Djurayeva Nargis Narkulovna</i> BOSHLANG'ICH TA'LIM PEDAGOGIKASIDA O'QUVCHILARDA NAFOSAT TARBIYASINING O'RNI	548-552

<i>Otabayev Iskandar Abdug'aniyevich</i> KREDIT-MODUL TIZIMI ORQALI O'QUV REJALARINI ISHLAB CHIQISH VA ULARNI AMALIY TATBIQ ETISH BOSQICHLARI	553-562
<i>Bozorov Zokir, Ravshanova O'g'ilshod</i> BO'LAJAK MATEMATIKA FAN O'QITUVCHILARINING PLANIMETRIYA BO'YICHA KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA TALABALAR MUSTAQIL ISHLARINING ROLI	563-568

Received: 15 April 2025

Accepted: 1 May 2025

Published: 10 May 2025

Article / Original Paper

THE REPRESENTATION OF MILITARY SUPPLY AND TROOP MOBILIZATION IN HISTORICAL SOURCES ON AMIR TEMUR'S ARMY

Polvanov Azim Kuchkarovich

Tashkent Institute of Technology, Management and Communication

Lecturer at the Department of Languages and Social and Humanitarian Sciences

Abstract. This article analyzes the issues of military supply and troop mobilization — essential components of military policy during the reign of Amir Temur — based on written sources from the Timurid era. The study examines the formation of Temur's army, the mobilization measures implemented prior to military campaigns, the criteria for selecting soldiers, and the army's supply system, using a source-critical (historiographical) approach. Particular emphasis is placed on an analysis of key sources such as Zafarnama by Nizam al-Din Shami and Sharaf al-Din Ali Yazdi, Ibn Arabshah's Ajā'ib al-Maqdūr fī Tārīkh Tīmūr, and the Temur's Codes (Tuzuks).

Keywords: Amir Temur, military campaign, Zafarnama, army, historical sources, supply system, tavachi.

AMIR TEMUR QO'SHINIDA HARBIY TA'MINOT VA ASKAR SAFARBARLIGINING MANBALARDA YORITILISHI

Polvanov Azim Kuchkarovich

Toshkent Texnologiya, Menejment va Kommunikatsiya instituti

"Tillar va ijtimoiy-gumanitar fanlar" kafedrası o'qituvchisi

E-mail: polvanovazim70@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada Amir Temur davridagi harbiy siyosatning muhim tarkibiy qismi bo'lgan qo'shin ta'minoti va askar safarbarligi masalalari Temuriylar davri yozma manbalari asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda Temur qo'shinining shakllanishi, harbiy yurishlar oldidan amalga oshirilgan safarbarlik choralari, askarlarni tanlash mezonlari va ularning ta'minot tizimi manbashunoslik yondashuvi asosida yoritiladi. Ayniqsa, "Zafarnoma" (Nizomiddin Shomiy va Sharafuddin Ali Yazdiy), Ibn Arabshoh "Ajoyib al-maqdur fi tarixi taymur", "Temur Tuzuklari" kabi manbalarda keltirilgan ma'lumotlarga tayanilgan holda tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: Amir Temur, o'g'riq, Zafarnoma, qo'shin, tarixiy manbalar, ta'minot, tavochi.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I5Y2025N02>

Kirish. Amir Temur o'z davrining atoqli sarkardasi hamda olamga mashhur katta saltanat tuzgan tarixiy shaxs, shuningdek O'rta Osiyoda kuchli markazlashgan, poytaxti Samarqand bo'lgan davlatning asoschisidir. Amir Temurning harbiy san'ati, qo'shinni boshqarish taktikasi, qo'shin ta'minoti masalalari mana bir necha asrdirki, dunyo olimlari va soha vakillari tomonidan o'rganilmoqda. Harb tarixi Amir Temurni jahonning eng buyuk sarkardalaridan biri sifatida, haqli ravishda tan oladi. [1;7-b.] Markazlashgan ulkan saltanatni boshqarish hududlar daxlsizligini ta'minlash bevosita kuchli qurollangan, yuqori harbiy tayyorgarlikka ega qo'shinga bog'liq edi. Shuning uchun Amir Temur qo'shin ta'minoti va qurol-aslahalarga alohida e'tibor qaratib, harbiy yurishlarda ta'minotning barcha turlari yetarli bo'lishi uchun aniq belgilangan tartiblar asosida ishlaydigan ta'minot tizimini yo'lga qo'ygan

edi. Temur va Temuriylar qo'shini jangovar tuzilishi jihatdan O'g'izxon va Chingizxon qo'shiniga o'xshash edi, U o'tliq va piyoda qismlardan iborat bo'lib, o'nlik, yuzlik, minglik, tumanlarga bo'lingan. [2;20-b.] Amir Temur nafaqat o'zidan oldingi harbiy sohadagi an'analarni davom ettirdi balki, o'z davri uchun zamonaviy harbiy bo'linmalarni ham tashkil etdi. Uning harbiy iste'dodi asosan ikki yo'nalishda: mohir harbiy tashkilotchi va atoqli sarkarda tarzida yorqin namoyon bo'ldi.[3;8-b.] Buyuk lashkarboshi va harbiy tashkilotchi sifatida Temurbek o'ta intizomli armiya tuzishga, muhoraba chog'ida qo'shin qismlarini san'atkorona boshqarishga, jang taqdiri hal bo'ladigan joylarga harbiy kuchlarni o'z vaqtida ustalik bilan yo'llashga, har qanday to'siq va g'ovlarni tadbirkorlik bilan bosib o'tishga, armiyadagi jangovar ruhni kerakli darajada ushlab turishga muvassar bo'ldi.[1;8-b.] Temur mohir sarkardaligi shundaki, u o'zining qo'shinini doimiy takomillashtirib qo'shinni kuchaytirish uchun yangi qurollar va zaxiralarni jalb etib borgan. Hindiston yurishida qo'lga kiritilgan fillardan maxsus bo'linma tashkil qilib ta'minot yuklarini tashish va janglarda bu fillardan foydalanilganligini Ispaniyalik elchi Klavixo ham o'z esdaliklarida qayd etgan.[4;82-84-b.] Amir Temurning harbiy yurishlari puxta o'ylangan reja asosida amalga oshirilgan harbiy yurishlar rejasi harbiy kengashlarda ko'rib chiqilgan. Amir Temur harbiy yurishga jo'nashdan oldin puxta o'ylangan harbiy yurish rejasini tuzish maqsadida arkoni davlat, vazirlar. Sarkardalar, beklar, amirlarni harbiy kengash-mashvaratga chorlagan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Amir Temurning harbiy sarkardalik mahorati va uning qo'shinni tashkil etish va kerakli qurol-aslahalar bilan ta'minlash borasidagi tadbirli ishlari Amir Temur hayotiga bag'ishlangan bir qancha manbalarda aks etgan. Shunday manbalardan biri G'iyosiddin Alining "Hindiston yurishi kundaligi" asaridir. Bu asar Amir Temurning Hindiston yurishi (1398–1399) haqida muhim ma'lumotlarni o'z ichiga olgan tarixiy manbalardan biridir. Ushbu asarda Temurning harbiy yurishi, jang taktikasi, Hindiston hududlarida olib borgan harbiy harakatlari va yurishning natijalari bayon etilganligi bilan bir qatorda ta'minot masalalariga oid ma'lumotlar ham mavjud. Umuman olganda G'iyosiddin Alining "Hindiston yurishi kundaligi" asari -Sohibqiron saltanati haqida yozilgan birinchi asar bo'lgani bilan bizga qadri va e'tiborlidir. Amir Temur qo'shini asosan o'tliq qo'shından iborat bo'lganligi bois otlar juda muhim bo'lgan askarlar jang vaqtida otlardan ajralib qolgan vaqtida Amir Temur ularni otlar bilan ham ta'minlagan xususan Hindiston yurishida ham shunday holat yuz bergan misol uchun asarda bu holat quyidagicha ifodalanadi "Pir Muhammad lashkari bilan safarda ko'p mashaqqat tortgani yog'ingarchilik mavsumi bo'lganligi uchun peshakolda ularning otlari mayib bo'lib, ko'pi piyoda qolgani tufayli shu kuni ularga o'ttiz mingta ot tortiq qilindi. Ularning bari o'tliq bo'ldi va xursand bo'ldi". [5;107-b.] Amir Temur qo'shinida maxsus ta'minot qism ham bo'lib, bu o'g'riq deb nomlangan u qo'shinining orqasidan yuradigan og'ir karvon bo'lgan, unda qo'shin uchun zarur qurol-aslahalar, oziq-ovqat, yem-xashak, va boshqa zarur anjomlar zaxirasi olib yurilgan. O'g'ruqda hukmdor va sarkardalarning xarami, bir qancha kasb hunar egalari, savdogarlar, nonvoylar, hammomchilar shuningdek qo'riqlovchi harbiy qism va boshqaruvchi qo'mondonlar ham bo'lgan. O'g'riq haqida G'iyosiddin Alining "Hindiston yurishi kundaligi" asarida quyidagi ma'lumotlar keltirilgan. "Amir Shohmalik va Davlat Temur tavochini o'g'ruq bilan dibolpur yo'lidan borishlari uchun o'g'ruq yonida qoldirildi." [5;109-b.] Yana shunday ma'lumotlar ham uchraydi: "O'g'ruqlarni qo'riqlashni esa Shayx Nuriddinga topshirib, ularga Qorasuv daryosi qirg'og'i bo'ylab yurishni buyurdi" [5;161-b.]. Ushbu ma'lumotlar shuni anglatadiki, O'g'riq faqat og'ir karvondan iborat bo'lmagan, balki

uni harbiy qo‘riqlash va boshqarish tizimi ham bo‘lgan. Masalan, Shayx Nuriddinga o‘g‘riqni qo‘riqlash vazifasi yuklatilgani va unga maxsus harbiy qismlar birlashtirilgani aytiladi. Bu o‘g‘riqni harbiy yurishlarda asosiy strategik obyektlardan biri sifatida ko‘rsatadi. Shuningdek O‘g‘riqning harakati ham nazorat ostida bo‘lib, masalan, Qorasuv daryosi bo‘yicha harakat qilish topshirilgani, uni dushman hujumlaridan himoya qilish choralarini ko‘rilganini anglatadi. Bundan tashqari, Shohmalik va Davlat Temur tavochining o‘g‘riq yonida qoldirilishi – qo‘shinning oldindan belgilangan ta‘minot strategiyasi bo‘lganini ko‘rsatadi. Xulosa qilib aytganda Amir Temur qo‘shinida o‘g‘riq faqat oddiy ta‘minot bo‘limi emas, balki harbiy yurishlarning asosiy logistika va ta‘minot tizimi, harbiy strategiyaning muhim qismi va yurish chog‘idagi muhim ijtimoiy-iqtisodiy markaz bo‘lgan. O‘g‘riqning xavfsizligi, harakati va ta‘minot tartibi oldindan rejalashtirilgan, unga maxsus harbiy qismlar birlashtirilgan va aniq nazorat qilinib, strategik qarorlar asosida boshqarilgan.

Muhokama. Yana bir muhim tarixiy manbalardan biri Amir Temurning bevosita topshirig‘i bilan muhim adib va tarixnavis Nizomiddin Shomiy tomonidan yozilgan “Zafarnoma” nomli asardir.

Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma” asarida ham qo‘shin ta‘minoti bilan bog‘liq bir qancha ma‘lumotlar keltirilgan. Misol uchun qo‘shin ta‘minotining asosini tashkil etgan o‘g‘riq haqida quyidagi ma‘lumotlar keltirilgan “Shunga binoan uning buyrug‘iga ko‘ra har o‘n nafar askardan ikkisini tanlab oldilar. O‘g‘riqni qoldirib, to‘xtatmasdan otga minib, ular tomon jo‘nadilar”. [6;134-b.] Yana bir joyda o‘g‘riq haqida quyidagilar bayon etilgan “Saroy Mulk xonim va Tumon og‘olarni o‘g‘riqda qoldirib, amir Yodgor, amirzoda Jahonshoh, amir Shamsiddin, amir Hoji Mahmudshoh va amir Uchqaro bahodirlarni ularni muhofazat qilib turish uchun tayin qildi”. [6;172-b.] Ushbu ma‘lumotlardan shunday xulosa qilish mumkinki,

Birinchi: O‘g‘riq qo‘shin ta‘minotida muhim rol o‘ynagan – O‘g‘riq tushunchasi asosan harbiy oromgoh yoki orqa front hududini anglatadi. Bu joyda qo‘shin uchun zarur bo‘lgan oziq-ovqat, o‘q-dorilar, kiyim-kechak va boshqa ta‘minot manbalari saqlangan bo‘lishi mumkin.

Ikkinchi: Har o‘n askardan ikkitasi ta‘minot ishlari uchun ajratilgan – Bu esa harbiy ta‘minotning tashkil etilishida aniq tizim mavjud bo‘lganini ko‘rsatadi. Harbiy yurishlar chog‘ida askarlarning bir qismi bevosita jang maydonida bo‘lsa, boshqalari ta‘minot va himoya vazifalarini bajarish uchun ajratilgan.

Uchinchi: O‘g‘riqni muhofaza qilish muhim vazifalardan biri bo‘lgan – Manbada Saroy Mulk xonim va Tumon og‘olarni o‘g‘riqda qoldirib, amirlar ularni himoya qilish uchun tayinlangani aytilmoqda. Bu esa o‘g‘riq harbiy yurishlarning strategik qismi bo‘lib, u doimo muhofazada bo‘lishi kerakligini ko‘rsatadi.

To‘rtinchi: Amir Temurning harbiy yurishlarida ta‘minot tizimi puxta o‘ylangan – O‘g‘riqning harbiy yurish chog‘ida qo‘shin ortidan yetkazib borilishi va maxsus qo‘shinlar tomonidan himoya qilinishi Temur qo‘shinlarining mustahkam logistika tizimiga ega ekanligini anglatadi.

Shunday qilib, Zafarnomadagi ushbu ma‘lumotlar Amir Temur davrida qo‘shin ta‘minotining puxta rejalashtirilganligi va ta‘minot obyektlari alohida qo‘riqlanganligi haqida muhim tarixiy dalillarni beradi.

Amir Temur tarixi haqida yozilgan yana bir muhim tarixiy manbalardan biri XV asr arab tarixnavisi Ibn Arabshohning “Ajoib al-ma’qdur fi tarixi Taymur” (“Temur tarixidagi taqdir ajoyibotlari”) asaridir.

Ibn Arabshohning “Ajoib al-ma’qdur fi tarixi Taymur” (“Temur tarixidagi taqdir ajoyibotlari”) asari yozilishida maullif o’zi guvoh bo’lgan yoki bevosita qoqealarga guvoh bo’lgan kishilar hikoyalari asosida yozilgan bu haqda muallif o’z kitobining muqaddimasida quyidagi ma’lumotlarni keltiradi. “Men Bu qissamdan o’zim ko’rganlarimni eslab, bu to’g’rida boshqalardan rivoyat topganlarimni bayon qilishni irodat etdim” [7;75-b] Ushbu ma’lumotlardan bilishimiz mumkinki, Ibn Arabshoh ham bu asarni ishonchli va haqqoniy ma’lumotlar asosida yozishga harakat qilgan. Ibn Arabshoh Temur qo’shini saflarida turli millat vakillari, shuningdek, “ayollar ham bo’lib, ular erkaklardan ham shiddatlijang qilganlar. Qo’shinlar ho’kizlarga yuk ortib, eshaklarni yuganlab minganlar; bundan tashqari tuyalar va otlar ham bo’lib ularni arpa, bug’doy, guruch, tariq, kishmish, yasmiq va daraxt po’stlog’i bilan ham boqqanliklarini aytgan”. [7;63-b.]

Amir Temur yaxshi qurollangan va o’rgatilgan kuchli qo’shinga asos soldi, amirlariga strategiya va taktika asoslarini o’rgatdi. Uning qo’shini o’rdada, xizmatda turgan qurchi, qorovul qismlar va ko’p sonli navkarlardan va Sonsiz deb atalgan o’n ming kishilik maxsus gvardiyadan tashqari, asosan yurish oldidan ulus va yurtlardan to’plab olib kelinadigan lashkardan tashkil topgan. Lashkar asosan ulus, viloyat, tuman amirlari zimmasiga yuklatilgan. [2;20-b.]

Amir Temur qo’shiniga jangchilarni jalb qilish jarayoni juda samarali va tizimli tarzda amalga oshirilgan. U turli manbalardan foydalanib, qo’shinlarini shakllantirish va kuchaytirish usullarini ishlab chiqqan. Quyida bu jarayonning asosiy jihatlarini ko’rishimiz mumkin.

Hududiy va qabila tizimiga asoslangan chaqiriq Bunda ulusning turli viloyat va tumanlaridan, shuningdek tobe yurtlardan qo’shin to’plash uchun maxsus buyrak-tunqal e’lon qilingan. Farmon kerakli joylarga harbiy buyruqlarni yetkazuvchi mas’ullar tavochi tomonidan yetkazilgan. Bundan tashqari Tavochi harbiy yurishlarga jangchilarni to’plash, qo’shindagi harbiy qismlarni harbiy qarorgohdagi o’rnini, harbiy yurishdagi o’rnini, shuningdek bir joydan ikkinchi joyga ko’chishiga mas’ul bo’lgan.[1;13-b.] Tavochi harbiy yurishlarda qo’shinni tashkil etish, to’plash, qo’mondon buyruqlarini askarlarga yetkazish kabi ishlarni bajargan. Tovachilarga buyruq berilishi bilan, ular buyruqda ko’rsatilgan miqdordagi askar bilan aytilgan yerda tayinlangan vaqtda tayyor turishi shart edi. Qo’shinga aholini harbiy safarbarlikka jalb etish orqali askar yig’ishning belgilangan tartiblari ham bo’lib quyidagicha amalga oshirilgan. Yurish vaqtida har bir ulus va tuman amiri har chodirlikdan (xirgoh) bir otliq, har ikki olachuqdan (chayla, kapa) bir otliq, har bir uydan bitta otliq askar ajratib, o’zlari bilan birga olib ketganlar.[8;86-b.] Har bir hududdan askarlar chaqirilgan, va har bir yerda mahalliy boshliqlar tomonidan belgilangan askarlar yig’ilgan. Temur bu tizimni markazlashgan holda boshqargan.

Ba’zan tovachilarga harbiy yurishlarda yo’lboshlovchilik ya’ni yo’l ko’rsatuvchilik vazifalari ham topshirilgan xususan Amir Temur dashti qipchoqqa To’xtamishxonga qarshi yurishida shunday holatni ko’rishimiz mumkin. Amir Sohibqiron qul qismidagilarni olib, Kalon Tavochini qacharchi qildi va tanlangan askarlari bilan ilg’or tarzida jo’nadi.[6;155-b.] Ushbu ma’lumotlardan ko’rinib turibdiki zarurat bo’lganda tavochilar qo’shinga yo’l ko’rsatuvchilik qilib, bir manzildan ikkinchi manzilga xavfsiz va adashmasdan to’g’ri yetkazish vazifalarini ham bajargan. Tavachilarga qo’shin to’plash buyrug’i berilishi manbalarda ko’p uchraydi Sohibqiron

uning kelganidan xabar topib, Samarqand va Kesh cheriki bilan shahardan chiqib Sog'archga keldi va tavachilarni har tomon chobtirdi, ular qo'shin yig'ishtirish bilan mashg'ul bo'ldi [9;122-b.]. Sharafiddin Ali Yazdiyning ma'lumotidan bilishimiz mumkinki. Amir Temur To'xtamishxonga qarshi yurishida Sog'arch yaqinida, ya'ni Samarqanddan 30 km masofada Ishtixon yaqinida, Zarafshon bo'yidagi qishloqda to'xtagani tavochilarni atrofga askar yig'ish uchun jo'natgan. Bu yerda tavochilar o'zlarining asosiy vazifalaridan biri lashkar yig'ish vazifasini bajarganligi bilishimiz mumkin. Shuningdek qo'shinga jangchilar atrofdagi hududlardan jalb qilinganligi ham ayon bo'ladi.

Bosib olingan tobe o'lkalardan jangchilarni qo'shinga qo'shish. Amir Temur harbiy yurishlari davomida bosib olingan hududlardan va yengilgan davlatlardan askarlarni o'z qo'shiniga qo'shib olgan. Bu strategiya qo'shin sonini oshirishda samarali bo'lgan, ayniqsa, malakali askarlar va harbiy rahbarlarni jalb qilish samarali natija bergan. Tavochilarga farmon berdiki, «Ozarbayjondin va Kurdistondin qo'shin yig'ishtisinlar!» [9;167-b.]. Bu yerda Amir Temurning tavochilari Ozarbayjon va Kurdistondan qo'shinga jangchi yig'gani, hamda tobe hududlar aholisi ham qo'shinda jangchi bo'lib janglarda qatnashgani ma'lum bo'ladi. Amir Temurning qo'shinida turli millat, elat vakillari, turli dinga e'tiqod qiluvchilar, turli kasb egalari va ijtimoiy kelib chiqishi ham turlicha bo'lgan jangchilar jang qilganlar. Bu haqdagi ma'lumotlar tarixiy manbalarda ham o'z aksini topgan.Xususan 1404-yilning qishida Amir Temurning Xitoyga yurishida qishning erta kelishi va qattiq bo'lishiga qaramay Movarounnahr, Turkiston, Xuroson, Eron, Iroq, mo'g'ul O'rdalaridan ikki yuz ming suvoriy Xitoy yurishi uchun saf tortib turardi.[10;158-b.] Amir Temurning Shom atrofidagi hududlarga qilgan yurishida ham qo'shin tarkibida turli xalqlar va din vakillari bo'lganligini unga zamondosh bo'lgan va u haqida tarixiy asar yozgan tarixchi Ibn Arabshoh ta'kidlagan edi. Temur qo'shinida Turon erlari, Eron botirlari, Turkistonliklar, Badaxshonliklar, Dashti qipchoqliklar, Mo'g'ullar, Xo'jandliklar, Andijonliklar, Xorazmliklar, Jurjonliklar, Ghag'ononliklar, Hisoni Shodmonliklar, Fors suvoriylari, Xurosonliklar, Xuzistonliklar, Isfaxonliklar, Rayliklar, G'aznaliklar, Hamadonliklar, Hindlar, Multonliklar, Lurliklar, arablar shuningdek musulmon bo'lmagan budparastlar, majusiy afsungarlar bor edi [7;196-b.].

Yollash va ixtiyoriy jalb qilish

Amir Temur jangovar salohiyati yuqori bo'lgan, harbiy xizmatda tajribaga ega bo'lgan askarlarni yollash amaliyotini ham keng qo'llagan. U askarlarning ixtiyoriy ravishda xizmatga kirishini rag'batlantirish uchun bir qator imtiyozlar va mukofotlar taklif qilgan.

Mukofot va rag'batlantirish: Temur qo'shinga qo'shilgan jangchilarga yer, boylik va qudrat va'da qilgan. Jangda muvaffaqiyat qozonganlar esa katta mukofotlarga ega bo'lishgan, bu esa ko'pchilikni qo'shin safiga qo'shilishga undagan.

Ixtiyoriy jangchilar: Temur harbiy xizmatni obro'li va manfaatli qilishga katta e'tibor bergan. Shu bois ko'plab tajribali jangchilar ixtiyoriy ravishda xizmatga kirishgan. Amir Temur saltanatida qo'shinga harbiy yurishlarda asir olingan jang qilishga qodir bo'lgan asirlar ham jangchi sifatida jalb etilgan.Temur tuzuklarida bu haqda quyidagilar bayon etilgan. "Amr etdimki, dushman tomonidan qo'limizga har qanday askar asir bo'lib, tushsa uni uldirmanglar. Unga ixtiyor berilsin. Agar navkarlikni qabul qilsa navkar bo'lsin". [8;105-b.] Qo'shinga aholini harbiy safarbarlikka jalb etish orqali ham askar yig'ilgan va uning belgilangan tartiblari ham bo'lib quyidagicha amalga oshirilgan. Yurish vaqtida har bir ulus va tuman amiri har

chodirlikdan (xirgoh) bir otliq, har ikki olachuqdan (chayla, kapa) bir otliq, har bir uydan bitta otliq askar ajratib, o'zlari bilan birga olib ketsinlar [7;86-b.].

Natijalar. Amir Temur qo'shinida jangchilarni qo'shinga jalb qilishning bir qancha mexanizmlari va tartiblari mavjud bo'lib, bu o'z navbatida qo'shin soni va sifatini yuqori darajada bo'lishini ta'minlagan. Bundan tashqari qo'shinda turli millat va elat vakillarining bo'lishi unga bir qancha qulayliklar va ustunliklarni bergan. Bular harbiy strategik ustunliklar, iqtisodiy ustunliklar va boshqalar edi.

Amir Temur harbiy yurishlaridagi qo'shin ta'minoti masalalari Amir Temur va Temuriylar davrida yozilgan tarixiy manbalarda yoritilgan. Qo'shin ta'minoti avvalda puxta o'ylangan reja asosida amalga oshirilgan va mahalliy resurslardan foydalanishga alohida e'tibor qaratilgan.

Xulosa. Amir Temur o'z davri uchun zamonaviy, qudratli qo'shin tuzgan mohir sarkarda bo'lib, u qo'shinga askarlarni jalb etish, qo'shinni doimiy kuchaytirish, harbiy yurishlarda qo'shin ta'minotini tartibli ishlash mexanizmlarini yaratib janglarda g'alaba qozongan mohir sarkardadir. Temur katta hududlarni o'z qo'l ostida birlashtirib, bir qancha millat va elatlardan iborat bo'lgan tartibli, mohirona harakat qiladigan o'z davri uchun zamonaviy, qudratli qo'shin tuzdi. Uning harbiy mahorati qo'shinni tashkil etishi, boshqarishi, askarlarni va iqtidorli sarkardalarni tarbiyalashi bugungi kun uchun ham muhim amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Hamidulla Dadaboyev. Amir Temurning harbiy mahorati. Toshkent. "Yozuvchi" nashriyoti. 1996.99b;
2. Bo'riboy Ahmedov. Sohibqiron Temur. Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti.Toshkent. 1996. 136b.
3. Муминов И. М. Роль в место Амира Темура в истории Средней Азии. Ташкент,1968,.
4. Rui Gonsales de Klavixo. Samarqand-Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi (1403-1406 yillar) M.Safarov. -T"O'zbekiston", 2010.-224b.
5. "Hindiston yurishi kundaligi" G'iyosiddin Ali- Toshkent. "Yangi asr avlodi" 2024. -304b. Fors tilidan tarjima, tarjimon Ra'no Qobilova.
6. Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma. Yunusxon hakimjonov tarjimasi. "O'zbekiston" nashriyoti.1996y. 582 b
7. Ibn Arabshoh "Ajoyib al-maqdur fi tarixi taymur" Toshkent. "Mehnat". 1992 y 326 b
8. Temur Tuzuklari. Alixonto'ra Sog'uniy va Habibulla Karamatov tarjimasi. G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi. 1991 y.
9. Sharafiddin Ali Yazdiy "Zafarnoma" nashrga tayyorlovchi Ashraf Axmad "Sharq" nashriyoti Toshkent.1997. 383b
10. Lyusen Keren. Amir Temur Saltanati. Toshkent "Ma'naviyat" 1999 y. 224b.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 5 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).